

MUSTAQILLIK YILLARIDA NAVOIY VILOYATI BOSMA MATBUOTINING MODDIY-TEXNIK RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL

Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich

Tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O'zbekiston

Email: mirsaidabduraxmonov854@gmail.com

ORCID: 0009-0009-6979-9985, Tel: +99893-430-93-21

07.00.00-Tarix fanlari

Annotatsiya. *Mazkur tezisdagi mustaqillik yillarida Navoiy viloyati bosma ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik rivojlanishi tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Hududiy matbuotning yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashuvi, tahririyatlarning moddiy va moliyaviy ta'minoti, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda matbaa tizimida yuz bergan texnologik o'zgarishlar tarixiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, kompyuter texnologiyalari va elektron sahifalashning joriy etilishi, matbaa bazasining modernizatsiyasi hududiy matbuot rivojlanishining muhim omillari sifatida baholanadi. Tadqiqot natijasida Navoiy viloyati bosma matbuotining moddiy-texnik rivojlanishi mustaqillik davrida hududiy OAVning yangi sharoitga moslashuvi bilan uzviy bog'liq tarixiy jarayon bo'lganligi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Navoiy viloyati, mustaqillik davri, bosma matbuot, hududiy matbuot, ommaviy axborot vositalari, matbaa, tahririyat, moddiy-texnik baza, modernizatsiya, tarixiy manbalar.*

KIRISH

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional o'zgarishlar ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida bosma ommaviy axborot vositalari yangi siyosiy-huquqiy va iqtisodiy sharoitga moslashish zarurati bilan yuzma-yuz keldi. Mazkur jarayon hududiy matbuot faoliyatida ayniqsa yaqqol namoyon bo'lib, tahririyatlarning tashkiliy tuzilishi bilan bir qatorda ularning moliyaviy va moddiy-texnik ta'minotida ham muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash masalasi keyingi yillarda ham davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu borada: "Biz keyingi yillarda, ulug' ajdodlarimiz boshlab bergan ibratli an'analarni davom ettirib, demokratik jamiyatning muhim sharti va tamoyili bo'lgan ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratmoqdamiz. Ana shunday yondashuv tufayli media makonimizga ilg'or loyiha va texnologiyalar, yangicha mulkiy munosabatlar jadal kirib kelmoqda", deya ta'kidlagan [1]. Mazkur yondashuv OAV faoliyatini rivojlantirish masalasining nafaqat axborot tarqatish, balki

jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi bilan bog'liq tarixiy jarayon sifatida ham muhim ekanligini ko'rsatadi.

Hududiy matbuot tarixini tadqiq etishda nashrlarning soni, mazmuni va tiraj ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, ularning faoliyat yuritishini ta'minlagan moddiy-texnik sharoitlarni ham o'rganish muhimdir. Chunki gazeta nashr etish jarayonining texnik imkoniyatlari, tahririyatlarning zarur jihozlar bilan ta'minlanishi, matbaa korxonalarining holati hamda mahalliy boshqaruv organlarining moddiy ko'magi hududiy bosma OAV faoliyatining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillardan bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan, Navoiy viloyati bosma matbuotining moddiy-texnik rivojlanish tarixini o'rganish mustaqillik yillarida hududiy OAV tizimida yuz bergan o'zgarishlarning mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi mustaqillik yillarida Navoiy viloyati bosma ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasida yuz bergan o'zgarishlarni tarixiy manbalar asosida tahlil qilish, ularning asosiy bosqichlari va xususiyatlarini aniqlash hamda mazkur jarayonlarning hududiy matbuot rivojlanishidagi tarixiy o'rnini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda tarixiylik va xolislik tamoyillari, muammoviy-xronologik hamda qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, hududiy bosma matbuot faoliyatida yangi tarixiy bosqich boshlandi. Sobiq tuzum davrida shakllangan tahririyatlar va matbaa korxonalari yangi siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda o'z faoliyatini davom ettirish bilan birga, bozor munosabatlari talablariga ham moslashishi zarur edi. Bu jarayon Navoiy viloyati matbuotida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi. Bir tomondan, mavjud viloyat, shahar va tuman gazetalarining faoliyati davom ettirilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi nashrlarning tashkil etilishi hududiy matbuot tizimining kengayishiga olib keldi. Shu bilan birga, nashrlar faoliyatini moddiy jihatdan ta'minlash, matbaa xarajatlarini qoplash, tahririyatlarning texnik vositalarini yangilash kabi masalalar davrning dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

1990-yillarning boshlarida Navoiy viloyati matbuotining moddiy-texnik holatini o'sha davrda mamlakatda kechgan iqtisodiy o'zgarishlardan ajratib baholash mumkin emas. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarajatlarining o'zgarishi bosma nashrlarning iqtisodiy faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi. Gazetani tayyorlashdan tortib uni bosib chiqarish va o'quvchiga yetkazishgacha bo'lgan jarayon muayyan moliyaviy va texnik imkoniyatlarni talab etardi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki davrida hududiy tahririyatlarning barqaror faoliyat yuritishi faqat ijodiy salohiyatga emas, balki ularning moddiy-iqtisodiy imkoniyatlariga ham bog'liq bo'lib qoldi.

Arxiv hujjatlari mazkur jarayonning muhim jihatlaridan birini ochib beradi. Xususan, arxiv hujjatlarida mahalliy hokimliklar tomonidan tahririyatlarga mablag' ajratilganiga doir ma'lumotlar uchraydi. Masalan, birgina "Qiziltepa tongi" gazetasiga 1992-yilda ajratilgan mablag'lar 122 ming 643 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1993-yilga kelib 2 million 550 ming so'mni tashkil etgan [2]. Mazkur holatni o'sha davr hududiy matbuotining iqtisodiy faoliyatini ta'minlash mexanizmlaridan biri sifatida baholash mumkin. Bunda mahalliy hokimliklarning

moliyaviy ko‘magi tahririyatlarning yangi iqtisodiy sharoitga moslashuvi davom etayotgan bir paytda ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi omillardan biri bo‘lgan. Shu jihatdan arxiv materiallari mustaqillikning dastlabki yillaridagi hududiy matbuot tarixini faqat nashrlar sonining o‘zgarishi orqali emas, balki ularning faoliyatini ta‘minlagan iqtisodiy va institutsional munosabatlar orqali ham tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Navoiy viloyatida bosma nashrlar sonining o‘zgarishi ham moddiy-texnik rivojlanish jarayonini tushunishda muhim tarixiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. 1992-1993-yillarda viloyatda 11 ta gazeta faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa [3], 1997-yilga ularning soni 19 tani tashkil qilgan [4]. 1999-yilda esa viloyatdagi bosma nashrlar soni 25 taga, jumladan, 2 ta viloyat, 9 ta tuman va shahar hamda 14 ta tarmoq nashriga yetgan [5]. Ushbu raqamlar 1990-yillarda Navoiy viloyatida hududiy matbuotning institutsional tarmog‘i shakllanib borganini ko‘rsatadi.

Biroq nashrlar sonining ortishini moddiy-texnik imkoniyatlarning xuddi shu darajada yaxshilangani sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Aksincha, nashrlar tarmog‘ining kengayishi ularni bosib chiqarish, texnik jihatdan ta‘minlash va moliyalashtirish bilan bog‘liq ehtiyojlarning ham ortishiga olib kelgan. Shuning uchun 1990-yillar Navoiy viloyati bosma matbuoti tarixida institutsional shakllanish bilan moddiy-iqtisodiy moslashuv parallel kechgan davr sifatida namoyon bo‘ladi.

XXI asr boshlariga kelib hududiy matbuot faoliyatida yangi texnologik imkoniyatlarning joriy etilishi tobora muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Tahririyatlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, materiallarni elektron shaklda tayyorlash va gazetalarni elektron sahifalash imkoniyatlarining kengayishi nashr tayyorlash jarayoniga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday o‘zgarishlar faqat texnik yangilik bo‘lib qolmay, tahririyatlarning kundalik faoliyati va matbaa bilan munosabatlarida ham yangi amaliyotni shakllantirdi.

Bu davrda viloyatdagi davriy nashrlar tarmog‘i ham rivojlanishda davom etdi. 2004-yilda Navoiy viloyatida 34 ta gazeta va 2 ta jurnal nashr etilgan bo‘lsa [6], 2014-yilga kelib esa, 39 ta davriy nashr faoliyat ko‘rsatgan [7]. Ushbu ko‘rsatkichlarni 1990-yillardagi holat bilan qiyoslash hududiy matbuot tizimida miqdoriy o‘sish bilan bir vaqtda uning institutsional barqarorlashuvi yuz berganini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda tahririyatlarning moddiy-texnik imkoniyatlaridagi o‘zgarishlar nashrlarni tayyorlash jarayonining zamonaviylashtirishiga zamin yaratdi.

Shu nuqtayi nazardan, 2000-yillarda amalga oshirilgan texnik yangilanishlar hududiy matbuot tarixida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beradi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida tahririyatlar oldidagi muhim vazifalardan biri mavjud moddiy bazani saqlab qolish va yangi iqtisodiy sharoitga moslashishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, keyingi davrda mavjud bazani modernizatsiya qilish masalasi oldingi o‘ringa chiqdi. Kompyuterlashtirish, elektron sahifalash va zamonaviy matbaa uskunalaridan foydalanish bu jarayonning asosiy ko‘rinishlaridan bo‘ldi.

2010-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab bosma matbuot faoliyatidagi texnologik o‘zgarishlarning mazmuni ham o‘zgara boshladi. Avvalgi bosqichda modernizatsiyaning asosiy yo‘nalishi gazeta tayyorlash va bosib chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik axborotni tarqatish usullarining o‘zgarishi muhim ahamiyat

kasb etdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashishi an'anaviy bosma nashrlarni yangi axborot muhitiga moslashishga undadi.

Bu jarayonni bosma matbuot tarixining avvalgi bosqichidan uzilgan mutlaqo yangi hodisa sifatida emas, balki moddiy-texnik modernizatsiyaning davomiy rivojlanishi sifatida ko'rish mumkin. Tahririyatlarda kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi dastlab gazeta materiallarini tayyorlash va sahifalash jarayonini yengillashtirgan bo'lsa, keyinchalik xuddi shu texnologik baza axborotni elektron shaklda tarqatish imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada tahririyat faoliyatida bosma nashr bilan bir qatorda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ham shakllana bordi.

Shu bilan birga, raqamli axborot muhitining kengayishi bosma nashrlarning miqdoriy ko'rsatkichlariga ham ta'sir ko'rsatgan omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bosma nashrlar soni kamayishi butun dunyoda kuzatilgan tendensiyalardan biriga aylandi. Bu holatni faqat hududiy bosma matbuotning inqirozi sifatida baholash tarixiy jarayonning mazmunini to'liq ochib bermaydi. Chunki ayni davrda axborot ishlab chiqarish va tarqatish kanallari diversifikatsiyalashib, tahririyatlar faoliyatiga raqamli vositalar tobora faol kirib bordi.

Shu sababli Navoiy viloyati bosma matbuotining moddiy-texnik rivojlanish tarixida uchta o'zaro bog'liq tendensiyaning kuzatish mumkin: dastlab mavjud moddiy bazani saqlab qolish va yangi iqtisodiy sharoitga moslashish; keyinchalik tahririyat va matbaa bazasini texnologik modernizatsiya qilish; so'ngra shakllangan texnik imkoniyatlar asosida raqamli axborot muhitiga moslashish. Bunday tarixiy izchillik hududiy matbuotning mustaqillik yillaridagi rivojlanishi bir yo'nalishdagi oddiy texnologik yangilanish emas, balki mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va axborot sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq murakkab tarixiy jarayon bo'lganini ko'rsatadi.

Umuman, tarixiy manbalar va statistik ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili Navoiy viloyati bosma matbuotining moddiy-texnik bazasi mustaqillik yillarida bir necha sifat o'zgarishlarini boshdan kechirganini ko'rsatadi. 1990-yillarda moddiy-iqtisodiy moslashuv, 2000–2010-yillarda texnik modernizatsiya, keyingi davrda esa raqamli axborot muhitiga moslashuv hududiy matbuot rivojlanishining o'zaro bog'liq jarayonlari sifatida namoyon bo'ldi. Demak, bosma matbuotning moddiy-texnik tarixini o'rganish orqali nafaqat tahririyat va matbaa tizimidagi texnologik o'zgarishlarni, balki mustaqillik davrida hududiy axborot makonining transformatsiyasini ham kuzatish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning OAV xodimlar kuni munosabati bilan bayram tabrigi. [Elektron manba]. – URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8269>

2. Navoiy viloyati davlat arxivi, M. 326-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'ma jild, 1, 2, 9-varaqlar; 15-yig'ma jild, 23-varaq; 17-yig'ma jild, 12-varaq; 42-yig'ma jild, 15-varaq; 47-yig'ma jild, 112-varaq; 51-yig'ma jild, 36-37 varaqlar.
3. O'zbekiston milliy arxivi, M. 56-fond, 1-ro'yxat, 20-yig'ma jild, 184-192-varaqlar.
4. Qambarov O. Maъnaviyat ҳаёт кўзгуси // *Дўстлик байроғи, 1997-йил, 27-июн.*
5. Navoiy viloyati davlat arxivi, M. 100-fond, 1-ro'yxat, 389-yig'ma jild, 51-53-varaqlar.
6. Navoiy viloyati davlat arxivi, M. 59-fond, 1-ro'yxat, 230-yig'ma jild, 1-varaq.
7. Редакция. Только факты // Знамя дружбы, 2014 года, 27 июня.